

O'zbekiston Respublikasidagi korxonalar va tashkilotlar demografiyasi bo'yicha ma'lumot


O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi ma'lumotlar bazasi asosida 01.01.2020 yil holatiga shakllantirildi




O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 25-sentabrdagi "Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash haqida"gi 274-son qaroriga muvofiq korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri bazasi yuritiladi.

Yuridik shaxs bo'lgan korxonalar va tashkilotlar demografiyasi bo'yicha tahliliy ma'lumot

2015-2020 yillar 1-yanvar holatiga, fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni



Mamlakatimizda qulay ish-bilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tadbiiq qilinmoqda. Bu esa aholi hamda xorijiy investorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.




Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni 2020-yil 1-yanvar holatiga 419,5 mingtani tashkil etib, ulardan 398,1 mingtasi yoki 94,9 % faoliyat ko'rsatmoqda. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 80,5 mingtaga yoki 23,7 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2019-yil davomida Respublikamizda 96,7 mingdan ortiq korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 41,7 mingtaga ko'pdir.

Ro'yxatdan o'tgan tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha soni, birlikda



Mas'uliyati cheklangan jamiyat



Oilaviy korxonona



Unitar korxonona





Xususiy korxonona



Aksiyadorlik jamiyati



Boshqalar




Mas'uliyati cheklangan jamiyat

Mas'uliyati cheklangan jamiyat deb bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta'sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta'sis hujjatlari bilan belgilab qo'yilgan miqdordagi ulushlarga bo'lingan jamiyat tan olinadi. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatlari bo'yicha javobgar bo'lmaydilar va jamiyat faoliyati bilan bo'lib zarar uchun o'zlari qo'shgan hissalarini qiymati doirasida javobgar bo'ladilar.


Mas'uliyati cheklangan jamiyatning firma nomi jamiyatning nomini, shuningdek "mas'uliyati cheklangan" degan so'zlarni o'z ichiga olishi kerak.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni


ming.birlik




Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar




Faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha soni, birlikda




2020-yil 1-yanvar holatiga 337,1 mingta tijorat shaklidagi korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, shundan xususiy korxonalar - 83,6 mingta, oilaviy korxonalar - 27,5 mingta, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar - 219,4 mingta, unitar korxonalar - 2,7 mingta va boshqalar - 3,3 mingtani tashkil etgan.


Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar (yanvar-dekabr oylarida)



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning soni




Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha umumiy sonidagi ulushi




2019-yilning yanvar-dekabr oylarida 96,7 mingta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etilgan bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1,8 martaga ko'pdir. Shundan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar – 60,8 mingta, xususiy korxonalar – 18,6 mingta, oilaviy korxonalar – 13,2 mingta, muassasalar – 2,8 mingta va boshqalar – 1,3 mingtani tashkil etdi.

Faoliyat ko'rsatayotgan qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi sohasidagi korxonalar va tashkilotlar tarkibi

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




Faoliyat ko'rsatayotgan sanoat korxonalari va tashkilotlari soni bo'yicha ma'lumotlar



2020-yil 1-yanvar holatiga sanoat korxonalari va tashkilotlari soni 70,6 mingtani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 124,1 % ga oshdi.

Jami sanoat korxonalar va tashkilotlari ko'payishining asosiy omili bo'lib (o'tgan yilning mos davriga nisbatan), ishlab chiqarish (qayta ishlash) sanoatida – 124,4 % ga (jami sanoatdagi ulushi 94,6 %), tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash – 129,5 % ga (jami sanoatdagi ulushi 3,3 %), elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash – 119,8 % ga (jami sanoatdagi ulushi 0,5 %) va suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilitatsiya qilish – 105,0 % ga (jami sanoatdagi ulushi 1,6 %) o'sishidir.

Qurilish ishlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda



2020-yil 1-yanvar holatiga qurilish sohasida korxonalar va tashkilotlar soni 36,2 ming tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 124,3 % ga oshdi. Jami qurilish sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili bo'lib, binolar va inshootlar qurishda – o'tgan yilga nisbatan 125,1 % ga (jami qurilishdagi ulushi 60,8 %), fuqarolik obyektlarini qurish – 112,1 % ga (jami qurilishdagi ulushi 8,6 %), ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari – 126,6 % ga (jami qurilishdagi ulushi 30,6 %) o'sishidir.

Savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda



2020-yil 1-yanvar holatiga savdo sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni 101,1 mingtani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 142,6 % ga oshdi. Jami savdo korxonalar va tashkilotlari soni ko'payishining asosiy omili bo'lib, avtomobil va motosikllar savdosidan tashqari chakana savdoda o'tgan yilga nisbatan – 141,9 % ga (jami savdodagi ulushi 61,8 %), avtomobil va motosikllar savdosidan tashqari ulgurji savdoda o'tgan yilga nisbatan – 142,7 % ga (jami savdodagi ulushi 30,3 %), avtomobil va motosikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlash o'tgan yilga nisbatan – 147,0 % ga (jami savdodagi ulushi 7,9 %) o'sishidir.

Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda

7 470

Sog'liqni saqlash sohasidagi faoliyat

217

Yashash uchun joy bilan ta'minlanmagan holda ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish

216

Yashash uchun joy bilan ta'minlagan holda parvarishlash

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda



2 333

yashash bo'yicha xizmatlar




23 303

oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar

2020-yil 1-yanvar holatiga yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni 25,6 mingtani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 129,4 % ga oshdi.

Jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar – 127,3 % ga (jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi ulushi 90,9 %), yashash bo'yicha xizmatlarning – 154,5 % ga (jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi ulushi 9,1 %) o'sishidir.

Axborot va aloqa sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni



2020-yil 1-yanvar holatiga axborot va aloqa sohasida korxonalar va tashkilotlar soni 7,9 mingtani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 113,3 % ga oshdi.

Jami axborot va aloqa sohasida korxonalar va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili kino-videofilmlar, televidion dasturlar, fonogrammalar va musiqali yozuvlarni ishlab chiqish bo'yicha xizmatlar o'tgan yilga nisbatan – 106,3 % ga (jami axborot va aloqa sohasidagi ulushi 6,1 %), axborot sohasidagi xizmatlar o'tgan yilga nisbatan – 119,3 % ga (jami axborot va aloqa sohasidagi ulushi 14,8 %), nashriyotchilik xizmatlari o'tgan yilga nisbatan – 112,9 % ga (jami axborot va aloqa sohasidagi ulushi 16,1 %) dasturlar tuzish va teleradio eshittirishlar bo'yicha xizmatlar – 97,3 % ga (jami axborot va aloqa sohasidagi ulushi 2,3 %), kompyuter dasturlashtirish xizmatlari o'tgan yilga nisbatan – 118,9 % ga (jami axborot va aloqa sohasidagi ulushi 30,2 %), aloqa xizmatlarning – 108,5 % ga (jami axborot va aloqa sohasidagi ulushi 30,5 %) o'sishidir.

Oilaviy korxonalar soni, birlikda




Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2020-yilning 1-yanvar holatiga 28,7 mingtani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 12,5 mingtaga yoki 1,8 martaga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 27,5 mingtani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 12,0 mingtaga yoki 1,8 martaga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatmayotgan oilaviy korxonalar soni 1,1 mingtani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 0,5 mingtaga yoki 1,8 martaga oshganligini ko'rish mumkin.

Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni, birlikda




Tashkiliy huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2020-yilning 1-yanvar holatiga 230,2 mingtani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 53,0 mingtaga yoki 129,9 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 219,4 mingtani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 49,2 mingtaga yoki 128,9 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatmayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 10,8 mingtani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 3,8 mingtaga yoki 154,7 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %

2020 y.




- Savdo
- Sanoat
- Boshqa turlari
- Qurilish
- Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar
- Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi
- Tashish va saqlash
- Axborot va aloqa
- Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish


2019 y.



Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, yanvar-dekabr oylarida birlikda



Hududlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda



Hududlar kesimida qaralganda, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni eng ko'pi Toshkent shahri (83 846 ta), Toshkent (38 523 ta), Farg'ona (35 379 ta), Andijon (30 740 ta) va Samarqand (31 354 ta) viloyatlari hissasiga to'g'ri keladi.

Hududlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni, birlikda

	Jami	shundan:	
		Qo'shma korxonalar	Xorijiy korxonalar
O'zbekiston Respublikasi	10 382	5 106	5 276
Qoraqalpog'iston Respublikasi	155	87	68
<i>viloyatlar:</i>			
Andijon	299	160	139
Buxoro	274	158	116
Jizzax	181	117	64
Qashqadaryo	192	141	51
Navoiy	209	131	78
Namangan	220	146	74
Samarqand	508	361	147
Surxondaryo	350	112	238
Sirdaryo	157	103	54
Toshkent	1 153	601	552
Farg'ona	415	282	133
Xorazm	140	85	55
Toshkent sh.	6 129	2 622	3 507

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning asosiy qismi Toshkent shahrida 6 129 ta (jamidagi ulushi 59,0 %), Toshkent 1 153 ta (11,1 %) va Samarqand viloyatida 508 tani (4,9 %) tashkil etgan. Eng kam Xorazm 140 ta (1,4 %), Sirdaryo viloyatlarida 157 ta (1,5 %), Qashqadaryo 192 ta (1,9 %) hamda Qoraqalpog'iston Respublikasida 155 tani (1,5 %) tashkil etadi.

O'zbekiston Respublikasida MDH davlatlarining kapitali ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni

	Jami	shundan:	
		Qo'shma korxonona	Xorijiy korxonona
Rossiya Federatsiyasi	1 828	1 113	715
Qozog'iston Respublikasi	809	409	400
Ozərbayjon Respublikasi	178	63	115
Qirg'iz Respublikasi	156	88	68
Tojikiston Respublikasi	161	93	68
Turkmaniston Respublikasi	148	66	82
Ukraina Respublikasi	121	74	47
Belarus Respublikasi	71	46	25
Armaniston Respublikasi	33	19	14
Moldova Respublikasi	21	7	14

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH) 1991 yil 8 dekabrda MDH tuzish to'g'risida bitim va 1991 yil 21 dekabrda mazkur Bitim Protokoli asosida tashkil qilingan.

Ozərbayjon Respublikasi, Armaniston Respublikasi, Belarus Respublikasi, Qozog'iston Respublikasi, Qirg'iz Respublikasi, Moldova Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Tojikiston Respublikasi, Turkmaniston Respublikasi, O'zbekiston Respublikasi va Ukraina Respublikasi MDH ishtirokchi davlatlari hisoblanadi.


O'zbekiston MDH doirasida amaldagi o'zaro savdo tartibini yomonlashtirmaydigan tamoyillarga asoslangan, to'laqonli erkin savdo hududini tashkil etish tarafdoridir. Bu MDH hududida barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashda muhim omil bo'lmoqda.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi hududida MDH davlatlarining kapitali ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni oshib borayotganini inobatga olganda ularning asosiy ulushi (jami xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar nisbatan) Rossiya Federatsiyasi 17,6 %, Qozog'iston Respublikasi 7,8 %, Ozərbayjon Respublikasi 1,7 %, Qirg'iz Respublikasi 1,5 % va Tojikiston Respublikalarida 1,6 % ga to'g'ri kelmoqda.


Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning davlatlar kesimida soni, birlikda




2019-yilda yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni, birlikda




Hududlar kesimida har 1000 oilaga to'g'ri keladigan tadbirkorlik subyektlari soni, birlikda




Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar kesimida taqsimoti, %



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining hududlar kesimida soni, birlikda




Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning hududlar bo'yicha soni, birlikda



2020-yil 1-yanvar holatiga faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning asosiy qismi Toshkent shahri 58 604 ta (jami dagi ulushi 26,7 %), Toshkent 23 313 ta (10,6 %), Andijon 18 857 ta (8,6 %), Samarqand 15 417 ta (7,0 %), Farg'ona 15 195 ta (6,9 %), Buxoro 14 429 ta (6,6 %), Namangan viloyatlari 13 916 ta (6,4 %) va Qoraqalpog'iston Respublikasi 10 329 ta (4,7 %) hissasiga to'g'ri keladi. Nisbatan kamroq o'sishi Sirdaryo 7 634 ta (3,5 %), Navoiy 7 249 ta (3,3 %), Surxondaryo 7 502 ta (3,4 %), Xorazm 7 900 ta (3,6 %), Jizzax 8 797 ta (4,0 %) viloyatlari hissalariga to'g'ri keladi.

Hududlar kesimida kichik korxonalar va mikrofirmalarning faollik holatlari bo'yicha tarkibi, % da




2020-yil 1-yanvar holatiga kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 334,8 mingtani tashkil etdi. Bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 27,3 % ga ko'pdir. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning eng ko'pi Toshkent shahri (74,1 mingta), Toshkent (32,6 mingta), Samarqand (25,6 mingta) va Farg'ona (29,3 mingta) viloyatlari hissasiga to'g'ri keladi. Eng kam Sirdaryo (11,1 mingta), Jizzax (14,0 mingta), Surxondaryo (15,5 mingta), Navoiy (14,9 mingta) viloyatlari hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi (14,7 mingta) hissalariga to'g'ri keladi.

Hududlar kesimida oilalar va faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari soni, birlikda

	Oilalar soni ^{*)}	Tadbirkorlik subyektlari soni	
		01.01.2019 yil	01.01.2020 yil
O'zbekiston Respublikasi	8 489 671	265 016	337 096
Qoraqalpog'iston Respublikasi	402 427	12 058	14 750
<i>viloyatlar:</i>			
Andijon	792 250	22 692	25 940
Buxoro	512 987	14 934	20 116
Jizzax	301 867	11 239	14 058
Qashqadaryo	737 968	16 361	20 462
Navoiy	261 472	9 181	14 955
Namangan	693 905	17 075	21 573
Samarqand	916 096	19 750	25 781
Surxondaryo	597 840	11 705	15 625
Sirdaryo	207 533	8 363	11 073
Toshkent	806 176	25 669	32 868
Farg'ona	985 771	23 446	29 475
Xorazm	494 130	11 887	15 545
Toshkent sh.	779 249	60 656	74 875

** 2019-yil 1-yanvar holatiga tumanlar (shaharlar) fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini muvofiqlashtirish bo'yicha kengashlari ma'lumotlari asosida jamlangan.*


2019-yilning yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarining hududlar bo'yicha soni, birlikda




2019-yilning yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarining asosiy qismi Navoiy (2 300 ta), Samarqand (2 143 ta), Toshkent (1 337 ta), Xorazm (1 291 ta), Farg'ona (1 041 ta), Buxoro (967 ta), Andijon (963 ta), Surxondaryo (781 ta) viloyatlari hissalariga to'g'ri keladi. Aksincha, Sirdaryo (110 ta), Namangan (229 ta), Jizzax (255 ta), Qashqadaryo (687 ta) viloyatlari hamda Qoraqalpog'iston Respublikasida (381 ta) korxonalar va tashkilotlarni tashkil etish ko'rsatkichi past darajani aks ettirgan.

Hududlar kesimida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar

soni, birlikda



O'tgan yilga nisbatan % da



Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri - axborot-ma'lumotnoma tusidagi, vaqti-vaqti bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

Ro'yxatga olingan korxonalar va tashkilotlar - ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrda mavjud bo'lgan yuridik shaxslar (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar - ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslar.

Faoliyat ko'rsatmayotgan korxonalar va tashkilotlar - ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan, moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotgan yoki belgilangan muddatda ustav jamg'armalarini shakllantirmagan hamda tugatish jarayonida bo'lganligi haqida ma'lumotlar mavjud bo'lgan yuridik shaxslar.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar - ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslar.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar - O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 24-avgustdagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" 275-sonli qarorining 1-ilovasiga muvofiq kichik tadbirkorlik subyektlariga ajratiladi.

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri

The screenshot displays the official website of the State Statistical Committee of the Republic of Uzbekistan. The main header includes the national emblem and the text 'O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT STATISTIKA QO'MITASI'. A navigation bar at the top lists various sections like 'ASOSIY SAHIFA', 'QO'MITA HAQIDA', and 'AXBOROT XIZMATI'. The main content area is divided into three columns: 'RASMIY STATISTIKA' on the left, a central service form, and 'FOYDALI MA'LUMOTLAR' on the right. The central form is for the 'Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri' (Unified State Register of Enterprises and Organizations). It features a dropdown menu with options such as 'Elektron hisobot', 'KTYaDR ma'lumotlari', 'Uslubiy materiallar', 'Statistik klassifikatsiyalar', 'Taqdim etiladigan hisobotlar ro'yxati', and 'Korxonalar pasporti'. The form itself has two input fields: 'STIR kodini kiriting' (with a gear icon) and 'Rasmdagi kodni kiriting'. A sample image of a handwritten code '99831k' is shown next to the second field. A 'Qidiruv' (Search) button is located at the bottom right of the form.

Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Davlat statistika qo'mitasining www.stat.uz rasmiy saytida real vaqt rejimida, so'ralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qo'yilgan.



**Statistik registrarni yuritish
va tizimli xizmat
ko'rsatish boshqarmasi
Tel.:71-230-80-90 (91)**